

EKISH MUDDATINI OPTIMALLASHTIRISHNING SARIMSOQNING VEGETATIV ORGANLARINI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Turdiyeva Feruzaxon Tirkashboyevna - "Meva sabzavotchilik va uzumchlik"
kafedrası katta o'qituvchisi Q.x.f.f.d. (PhD), Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti. O'zbekiston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada sarimsoq piyozni maqbul ekish muddatlarini aniqlash va turli muddatlarda ekib etishtirishda fenofazalarning davomiyligi, nihollarning yoppasiga paydo bo'lishi, piyozchalarning dala unuvchanligi hamda boshqa ko'rsatkichlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: sarimsoqpiyoz, maqbul ekish muddatlari, o'sib rivojlanish, oyining I-dekadasi, Mayskiy VIR navi, chin barglar paydo bo'lishi, piyozbosh shakllanishi, hosilni yig'ish, o'suv davri.

ВЛИЯНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ СРОКОВ ПОСАДКИ НА РАЗВИТИЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ОРГАНОВ ЧЕСНОКА

Турдиевой Ферузахон Тиркашбоевна - *Старший преподаватель кафедры
"Плодоовощеводство и виноградарство" Кандидат сельскохозяйственных наук
(PhD) Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий*
Узбекистан.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования по определению оптимальных сроков посадки чеснока. Изучены продолжительность фенологических фаз, динамика массового появления всходов, полевая всхожесть луковиц и другие биометрические показатели при различных сроках выращивания.

Ключевые слова: чеснок, оптимальные сроки посадки, рост и развитие, первая декада месяца, сорт Майский ВИР, появление настоящих листьев, формирование луковицы, сбор урожая, вегетационный период

THE EFFECT OF OPTIMIZING PLANTING DATES ON THE DEVELOPMENT OF VEGETATIVE ORGANS IN GARLIC

Turdiyeva Feruzakhon Tirkashboyevna- *Senior Lecturer, Department of "Fruit
and Vegetable Growing and Viticulture" PhD in Agricultural Sciences. Andijan
Institute of Agriculture and Agrotechnologies. Uzbekistan.*

Abstract: This article identifies the **optimal planting dates** for garlic and evaluates the **duration of phenological phases**, uniform seedling emergence, **field germination rates**, and other growth parameters under various planting schedules

Keywords: garlic, optimal planting dates, growth and development, the first decade of the month, Mayskiy VIR variety, emergence of true leaves, bulb formation, harvesting, growing season..

Kirish. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sarimsoq piyozning (*Allium sativum* L.) kasalliklarga va noqulay tashqi muhit omillariga chidamli, serhosil, ertapishar, vitaminlarga boy bo‘lgan yangi navlarini yaratish, ularni etishtirishning resurs tejovchi agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 oktabrdagi PQ-4863-son “Sarimsoq hamda to‘qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini etishtirish va eksport qilishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, dehqon va fermerlar daromadini oshirish ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Sarimsoq o‘zining shifobaxsh xususiyatlari, o‘ziga xos ta’mi va parhezboqligi tufayli qadimdan xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. U ovqat tayyorlashda, qayta ishlash sanoatida, shuningdek, tarkibidagi fitontsidlar tufayli bakteriyalarga qarshi vosita sifatida qo‘llanilgan.

Asosiy qism. Sarimsoqpiyozni maqbul ekish muddatlarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishi olib borildi. Bunda sarimsoqpiyozni ochiq maydonga Mayskiy VIR navini 4 ta ekish muddati bo‘yicha ekildi. Tajribda sarimsoq piyozni sentabr oyining II-dekadasida ekish – nazorat variant qilib olindi. Nazorat variantga avgust oyining III dekadasi, sentabr oyining I-dekadasi va sentabr oyining III-dekadasi taqqoslanib o‘rganildi. Tajribada o‘simliklarning rivojlanish fenofazalarning davomiyligi aniqlandi. Bunda sarimsoq piyozchalarini yerga ekilgandan so‘ng nixollarni yoppasiga paydo bo‘lishi, piyozchalarni daladagi unuvchanligi, 2-3 chin barglar paydo bo‘lishi, piyozbosh shakllanishi, poyalarning sarg‘ayishi, piyozboshlarning texnik pishib etilishi, hosilni yig‘ish va o‘suv davri aniqlandi

Ilmiy tadqiqotda sarimsoq nixollarni yoppasiga paydo bo‘lishi variantlararo

15-19 kunni tashkil etgan bo'lsa, nazorat variantga nisbatan avgust oyining III-dekadasida ekilgan variant yaqinroq, ya'ni 16 kunni tashkil etgan. Qolgan variantlar nazorat variantdan 3-4 kun ertaroq nixollari paydo bo'lganligi kuzatildi. Nisbatan eng erta nixollarni paydo bo'lishi sentabr oyining III-dekadasida ekilgan variantda aniqlangan bo'lib, 19 kunni tashkil etgan. Sarimsoq piyozni dalada unuvchanligi bo'yicha variantlar bo'yicha farqlanish 81,3 foizdan 90,6 foizgachani tashkil etib, ularning ichida eng yuqori natijani sentabr oyining I-dekadasida ekilgan variantda kuzatilgan bo'lib u 90,6 foizni tashkil etgan. Eng kam ko'rsatkich esa avgust oyining III dekadasiida ekilgan variantda bo'lgan. Sababi avgust oyida xaroratning yuqori bo'lishi ekilgan piyozchalar unuvchanligiga salbiy ta'sir etgan.

Tajribada nixollar paydo bo'lgandan ikkinchi va uchinchi chin barglarning paydo bo'lishi ham kuzatilgan. Bunda avgust oyining III dekadasi va sentyabr oyining I-dekadasida ekilgan variantlarda bu o'suvfazasi bir xilda 15 kuni kuzatilgan. Nazorat variantda 17 kuni kuzatilgan bo'lsa, sentabr oyining III-dekadasida ekilgan variantda esa 20 kuni kuzatilgan. Tajribada piyozbosh shakllanishi fazasi bo'yicha variantlararo 193-209 kunni tashkil etgan. Nazorat variant piyozboshlari 204 kunda shakllangan bo'lib, unga nisbatan avgust oyining III-dekadasi va sentabr oyining I-dekadasida ekilgan variantlar (200-193 kun) 4-11 kun ertaroq piyoz bosh hosil qilgan. Nazoratga nisbatan sentabr oyining III-dekadasida ekilgan variant (209 kun) 5 kun kechroq ushbu fazani bosib o'tgan.

Olib borilgan tajribada turli muddatlarda ekilgan sarimsoq o'simligi poyalarning sarg'ayishi va piyozboshlarning texnik pishib etilishi ham kuzatildi. Bunda asosiy piyozboshlarning texnik pishib etilishi bo'yicha ko'radigan bo'lsak, nazorat variantda 239 kunda texnik pishib etilgan bo'lib, avgust oyining III-dekadasida ekilgan variant bilan deyarli bir xil (238 kunda) ko'rsatkichga ega bo'lgan. Nazoratga nisbatan sentabr oyining III dekadasiida ekilgan variant (241 kunda) 2 kun kechroq pishgan.

Sentabr oyinin I-dekadasida ekilgan variant esa nazoratga nisbatan (233 kunda) 6 kun erta texnik pishib etilganligi aniqlangan. Bu albatta Qoraqalpog'iston

Respublikasining janubiy xududida sarimsoqpiyozni sentabr oyining I-dekadasida ekilsa ertaroq pishib etilishi isbotlangan.

Tajribada hosilni yig'ib olish muddati variantlararo katta farqlanmadi. Bu ko'rsatkich variantlar bo'yicha ertapisharda 234 kunda va kech pisharda 242 kunda yig'ib olingan.

Barglarning uzunligi bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich sentabr oyining I-dekadasida ekilgan variantda 50,6 sm ni tashkil etgan. Barglarning eni ham navlararo 2,2-2,8 sm ga bir biridan farqlangan.

Tajribada sarimsoq o'simligi soxta poyasining balandligi aniqlangan bo'lib, bunda may oyining uchinchi dekadasida olib borilgan kuzatuvlarga ko'ra, nazorat variantda 58,4 sm ni tashkil etib, undan sentabr oyining III-dekadasida ekilgan variant kam 52,1 sm ko'rsatkichni namoyon etgan. Qolgan barcha variantlar esa nazoratdan yuqori natijalarni ko'rsatgan. Nisbatan eng yuqori natijani sentabr oyining I-dekadasida ekilgan variantda soxta poyaning uzunligi 67,2 sm bo'lganligi aniqlangan. Soxta poya diametri bo'yicha variantlararo 2,0-2,4 sm ni tashkil etib, o'zaro katta farqlanmadi.

Tadqiqot natijalari. Tajribada sarimsoqpiyozni o'simligi bir tup poyasining o'rtacha vazni may oyining uchinchi dekadasidaga o'lchab xisoblab chiqilganda variantlararo farqlanish kuzatilgan. Bunda nazorat sentabr oyining II -dekadasida ekilgan variantda 202 gramni tashkil etib, eng kam ko'rsatkich sentabr oyining III-dekadasida ekilgan variantda 195 gram ekanligi aniqlandi. Qolgan variantlar esa nazoratdan 18-35 gramga yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Bir tup poyaning o'rtacha vazni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich sentabr oyining I-dekadasida ekilgan variantda 237 gram ekanligi ma'lum bo'ldi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, sarimsoq o'simligini etishtirishda, sentabr oyining I-dekadasida ekilganda o'simlik er ustki qismining kuchli o'sib rivojlanganligi aniqlandi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Andijon viloyati sharoitida sarimsoq piyozning o'sib rivojlanishi, vegetatsiya davomiyligi va hosildorlik ko'rsatkichlari ekish muddatiga bevosita bog'liqdir. Tajriba natijalariga ko'ra, turli

muddatlarda ekilgan sarimsoq o'simliklarining vegetativ rivojlanishi, piyozboshlarining unuvchanligi, fenologik fazalarning kechishi va yakuniy hosil miqdorida sezilarli farqlar kuzatildi. Tajriba variantlari ichida **sentyabr oyining I-dekadasida ekilgan** sarimsoq o'simligi barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlik qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, **Andijon viloyati sharoiti uchun sarimsoq piyozni ekishning eng maqbul muddati — sentyabr oyining I-dekadasi** hisoblanadi. Ushbu muddatda ekilgan o'simliklar tez va bir maromda rivojlanadi, yuqori hosil shakllantiradi hamda piyozboshlarning pishib etilishi yanada tez kechadi. Shu bois, sarimsoq etishtiruvchi dehqon va fermer xo'jaliklariga aynan ushbu ekish muddatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 oktabrdagi "Sarimsoq hamda to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini etishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4863 sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent, 2020. – B. 42-43.
4. Sherimov D.Sh. //Qoraqalpog'istonning janubiy xududlarida Sarimsoq piyoz etishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqish//. Avtoreferat 2025. -20 b.